

## O‘ZBEKISTONDA SOLIQ –BYUDJET SIYOSATI VA SOLIQ TIZIMINING XUSUSIYATLARI

**Anvarov Nozimjon Maxsudbek o‘g‘li**

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

Iqtisodiyot va qurilish fakulteti

Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrası asissenti

***Annotatsiya.** Davlat soliq siyosati orqali respublika iqtisodiyotini barqarorlashtirish va rivojlanishiga har tomonlama faol ta‘sir ko‘rsatish mumkin. Ushbu maqolada iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi bo‘lgan soliq siyosati keng yoritib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** bozor iqtisodiyoti sharoiti, moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish, soliq siyosatining o‘rni, soliqlarning obyektiv zarurligi, O‘zbekiston soliq siyosatining mazmuni, strategiya va taktikasi, O‘zbekiston soliq tizimi, uning tartibi, vazifalari, soliqlarning tasnifi.*

Soliq siyosati davlatning soliq munosabatlarini tashkil qilishdagi chora-tadbirlari, faoliyatlar yig‘indisidir. Shunday ekan, faqat mustaqil davlatgina o‘z mustaqil soliq siyosatiga ega bo‘la oladi.

Soliq siyosatini ishlab chiqish moliya-iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadi. Davlat soliq siyosati orqali respublika iqtisodiyotini barqarorlashtirish va rivojlanishiga har tomonlama faol ta‘sir ko‘rsatish mumkin. Soliqlar pul munosabatlari bo‘lib, iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi ekan, soliq siyosati ham iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismidir.

Soliq tizimi deganda moxiyati jixatidan bir xil bo‘lgan va markazlashgan pul fondiga tushadigan soliq turlarining yig‘indisi tushuniladi.

Tizim - bu yig‘ma tushunchadir. Bu tushunchada soliqlarning bir-biri bilan bog‘liqligi xam ifoda etilgan. Soliq tizimini quyidagi guruxlarga bo‘lish mumkin:

Soliq tizimini soliq obyektiga qarab uch guruxga bo‘lish mumkin: oborotdan, daromaddan va mulklar qiymatidan olinadigan soliqlar. Oborotdan olinadigan soliqlarga ko‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, konlardan foydalanganligi uchun solig, bojxona boji kiradi. Daromaddan olinadigan soliqlarga foyda solig‘i va daromad soliglari kiradi. Mulklardan olinadigan soliqlarga mol-mulk solig‘i va yer soliqlari kiradi. Iqtisodiy moxiyatga qarab to‘g‘ri va egri soliqlarga bo‘lish mumkin. To‘g‘ri soliqlar bevosita daromad oluvchimulk egasining daromadlaridan (foydalaridan)

olinadi. Bunday soliqlar huquqiy va xaqikiy soliq to'lovchi bitta shaxs bo'ladi. Soliq ilgari aniq belgilangan bo'ladi. Uning manbai bo'lib korxonalar va tashkilotlarning xo'jalik faoliyati natijasida erishilgan moliyaviy yakun hisoblanadi. Axoli soliqlarida esa soliq manbai bo'lib to'g'ridan-to'g'ri axolining daromadi hisoblanadi. Foyda (daromad) solig'i, yer solig'i va daromad solig'i to'g'ri soliqlarning eng yirik daromadidir.

Egri soliqlar korxonalar va tashkilotlar faoliyatining moliyaviy yakuniga bog'liq bo'lmaydi. Ular sotilayotgan tovarlar va xizmatlar oborotiga (baxosiga) ustama tarzda belgilanadi. Ular so'zsiz tovar qiymati va xizmat summasini oshiradi va iste'molni kamaytiriladi. Bu soliqlarni ba'zan iste'mol soliqlari deb ham ataladi. Bundan qaraganda ularni guyo maxsulot sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi to'laetgan bo'ladi. Aslida esa ularning xaqiqiy to'lovchisi tovar va xizmatlarni iste'mol qiluvchilar bo'ladi. Egri soliqlar guruxiga ko'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va bojxonalar bojlari kiradi. Soliq solish tizimining bir qancha elementlari mavjud va bular quyidagilardan iboratdir: soliq subyekti, obyekt, manbasi, soliq stavkasi, soliq solish birligi, soliqlardan imtiyozlar va boshqalar kiradi.

Biz avvalo soliq tizimi va soliq solish tizimi tushunchalarni bir-biridan farqini bilishimiz zarur. Bu yerda nazariy jihatdan soliq tizimi soliqlar yig'indisi tushuniladi. Soliq solish tizimi esa tashkiliy jihatdan, tuzilish usullari yig'indisi tushuniladi, Ya'ni soliq solish tizimi amaliy uslublar yig'indisidir.

Shunday qilib, soliq solish tizimi deb, Oliy majlis tomonidan belgilangan va ijrochi idoralardan tomonidan undiriladigan soliqlarni tuzilish usullari va tamoyillari yig'indisiga aytiladi. Bu tizimning urni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi bilan aniqlanadi.

Soliq solish tizimining bir qancha elementlari mavjud va bular quyidagilardan iboratdir: soliq subyekti, obyekt, manbasi, soliq stavkasi, soliq solish birligi, soliqlardan imtiyozlar va boshqalar kiradi.

Soliq subyekti bu soliq munosabatlarni tashkil qiluvchilar. Bularga asosan soliq to'lovchilar:

yuridik shaxslar korxonalar, tashkilot, firma va jismoniy shaxslar-axoli kiradi. Ikkinchi tomondan soliq subyektiga davlat kiradi, Ya'ni soliq oluvchi.

Soliq obyekt - bu soliq solinadigan daromad, narsa (buyum), mulk, qiymati, tovar, yer maydoni, ot kuchi va boshqalar. Ko'pincha soliq nomi obyekt nomi bilan ataladi. Masalan, yer solig'ida yoki daromad solig'ida.

Ma'lumki biz o'tgan mahrumimizda soliq tizimi va soliqqa tortish tizimi tushunchalari o'rtasida farq bor degan edik. Soliq tizimi nazariy jihatdan soliqlar turlarining yig'indisidan iborat, soliq solish tizimi esa soliqqa tortish amaldagi

uslublari yig'indisidan iborat deb tushuntirgan edik. O'tgan mahruzada aytganimizdek bozor iqtisodiyoti yo'lini tanlagan ekanmiz soliqqa tortish tizimi bilan bir qatorda soliq tizimini xam islox qilish zaruriyatiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 14 yanvarda qabul qilingan "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlarning soliqlari to'g'risida" gi qonunga binoan 1992 yildan boshlab yangi soliq tizimi joriy etildi. Bu tizimning shu davrgacha amal qilgan tizimdan tub farqi shundaki Respublikamiz xududida ayrim soliq turlari bekor qilinib, ularning qrniga yangilari kiritildi.

1992 yilgacha 62 yil davomida o'zgarmsdan xizmat qilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy salmog'i bo'lgan oborot solig'i qrniga qo'shilgan qiymat solig'i, foydadan ajratma to'lovi qrniga yalpi daromaddan daromad solig'i va yangidan Respublikadan chetga chiqarib sotiladigan tovarlarga soliq, cheklangan tovar turlariga aksiz solig'i va mol-mulk soliqlari joriy etildi.

Soliq tizimiga bunday o'zgartirishlar kiritishning zaruriyati nimada?

Birinchidan, Ma'muriy - buyruqbozlik uslubiga asoslangan sobiq ittifoq davrida davlat korxonalar daromadlarini xoxlagan istagi bo'yicha taksimlar edi. Soliq stavkalarini davlat xoxlagan paytda va xoxlagan miqdorda o'zgartirar edi. 90 - yillarga qadar foydadan ajratma stavkasi orqali korxonalar foydasining 90 % gacha byudjetga olib qo'yilar edi. Bozor iqtisodiyoti qonunlari bunday o'zgartirishlar qilinishiga yo'l qo'ymaydi, sababi korxonalarda moddiy manfaatdorlik va rag'batlantirish yuqolganligi bo'lib, ular ishlab chiqarishni rivojlantirishga qiziqmay qo'yadilar, ishlarida o'sish bo'lmaydi, korxonalarda boqimandalik kayfiyati, davlat dotatsiyasiga ko'z to'tish kabi illatlar tug'iladi. Bu illatlardan qutulishning yagona yo'li soliq tizimini qayta qurish xisoblanadi. Ikkinchidan, korxonalar moliyaviy erkinlikka ega emas edilar. Qancha maxsulot ishlab chiqarilish kerak, ularning xom ashyosi qaerdan olinadi, maxsulot birligiga qancha xom ashyo ishlatilishi kerak, ishchilar soni, ish xaqi miqdori, elektr energiya va yoqilg'i sarfi, tovarlar baxosi markaz tomonidan boshlab berilar edi. Bu bozor iqtisodiyoti talablariga zid bo'lganligi uchun xam korxonalar moliyaviy erkinlik berilishi zarurligi tug'ildi.

Uchinchidan, ish xaqi xarajatlarining oshib ketishi natijasida davlat g'aznasiga tushadigan foydadan ajratmalar miqdori kamayib ketganligi sababli uning qrniga yalpi daromaddan soliqqa tortish zaruriyati paydo bo'ldi. To'rtinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ishlab chiqarish darajasining pasayishi, inflyatsiya, ishsizlarning ko'payishi, moliyaviy tanqislik, baxolarning keskin oshib ketishi kabi xodisalar yuz berdi. Ularni qoplash uchun zarur daromadlar bo'lishligi talab etiladi. Bu daromadlarni faqat to'g'ri soliqlar orqali byudjetga jalb qilish etarli bo'lmay qoladi. Shuning uchun, to'g'ri soliqlardan tashqari egri soliqlarni xam qo'llash zaruriyati tug'uldi.

Beshinchidan, mustaqillikka yerishgan xar bir davlat o'zining mustaqil soliq tizimiga ega bo'lishi kerak. Bu xam iqtisodiy, xam maonaviy jixatdan zaruriyat xisoblanadi. Shu sababli xam soliq tizimi isloxati amalga oshirilmoqda.

Shunday qilib soliq tizimi muayyan sharoitda davlat foydasiga undiriladigan soliqlar majmuidir, ularni yig'ib olish yo'llari va usullarining tashkil etilishidir.

Soliq tizimiga soliq turlari, soliq miqdori, soliq undiriladigan daromadlarni aniqlash kabilar kiradi. Endi soliq tizimining vazifasi to'g'risida gaplashaylik. Ular:

Soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasida daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash vazifasi;

Iqtisodiy va ijtimoiy soxadagi faoliyatini rag'batlantirish yoki cheklab qo'yish;

Axolining muayyan tabaqalariga ijtimoiy imtiyozlar berish vazifalari.

O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos va o'ziga mos yo'lini tanlab oldi va uni jamiyatda bosqichma-bosqich muvaffaqiyatli amalga oshirilmokda. Ushbu tanlangan yo'ning moxiyati O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimovning besh tamoyilida taxriflab berilgan. Bu qoida O'zbekiston davlat qurish va iqtisodiy islox qilish dasturining o'zagi bo'lib ularning moxiyati quyidagichadir:

Birinchidan, iqtisodiyotning siyosatdan ustivor bo'lishi va uning uchun iqtisodiyot mafkuradan xoli qilinishi;

Ikkinchidan, davlat bosh islohotchi bo'lishi;

Uchinchidan, qonunlarga rioya qilishning xamma narsadan ustivor bo'lishi;

To'rtinchidan, kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazilishi;

Beshinchidan, bozorga iqtisodiyotiga o'tishni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi;

Iqtisodiyotning siyosatdan ustivor bo'lishi va uning uchun iqtisodiyot mafkuradan xoli qilinishi:

Bu tamoyilning mahnosi shuki, iqtisodiy islohotlar xech qachon siyosatning ta'siri ostida bo'lmasligi, Ya'ni biror bir mafkuraga buysundirmasligi kerak. Bu esa iqtisod xamisha siyosatdan ustun turmogi kerak. Na siyosat, na mafkura iqtisodiyotni nazorat qilish, unga tayzik o'tkazish darajasiga kutarilmasligi, xam ichki, xam tashki iqtisodiy munosabatlar xar qandaymafkuradan xoli bo'lishi lozim. Avval iqtisodiyot keyin siyosat, "avval taom, badaz kalom" degan xikmalar bekorga aytilmagan. Butun insoniyat tajribasi shuni ko'rsatadiki, xar bir ishchi, muxandis, texnik o'z ish joyida korxonada, birlashma, tsexlarda o'zini xujayin deb xis qilish, o'z mexnatining pirovard natijasidan moddiy jixatdan manfaatdor bo'lishi kerak. Ular ishlab chiqarilgan traktor, mashina, taer va boshqa maxsulotlar ichki bozorda va jaxon bozorida, bozorning o'zi belgilab beradigan narxlar bo'yicha erkin sotilish kerak.

Bozor qoidasiga ko'ra kimning maxsuloti yuqori sifatli, kurinishi yaxshiroq va narxi arzonlik bo'lsa, qsha maxsulotga talab boshqa maxsulotlarga nisbatan ko'proq bo'ladi. Bunday vaziyatda bozorga xech qanday siyosat yoki mafkura o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. Soliq tizimi Respublikamiz ijtimoiy iqtisodiy xayotidagi xarakatiga qarab xilma xil guruxlarga bo'linadi. Soliq tizimi iqtisodiy moxiyatiga qarab, kelib tushish manbaiga qarab, byudjetga o'tkazish nuqtai nazaridan qo'llaniladigan stavkalarga va soliq imtiyozlariga qarab guruxlanadi. Ularni aloxida-aloxida ko'rib chiqamiz.

Iqtisodiy moxiyatiga qarab guruxlanish. Iqtisodiy moxiyatiga qarab O'zbekiston soliqlarini to'g'ri va egri soliqlarga bo'lish mumkin. To'g'ri soliqlar xaqikiy daromad oluvchi yoki mulk egasidan olinadi. Ularning oboekti yalpi daromad, mulk qiymati, yer maydoni, ot kuchi va boshqalar xisoblanadi.

Egri soliqlar esa sotilayotgan tovar, bajarilayotgan ish, ko'rsatilayotgan xizmat qiymati ustiga ustama qo'yiladi. Egri soliqlarni to'lovchilar sotilgan tovar va ko'rsatilgan xizmatni dastlabki iste'mol qiluvchi korxonalar va yakuniy iste'molchilar, Ya'ni, axoli xisoblanadi. Byudjetga kelib tushish manbaiga qarab huquqiy va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga bo'linadi. Huquqiy shaxslardan QQS, aksiz solig'i, Respublikadan tashqariga chiqarib sotiladigan tovarlar va maxsulotlar solig'i, qimmatli qog'ozlar opreatsiyalariga solinadigan soliq, daromad solig'i, korxonalar mol-mulki solig'i, korxonalar transport vositalari solig'i, yer solig'i, jamoa a'zolarining mexnat xaqi fondi solig'i, sanoat ko'rilishi solig'i va boshqalar olinadi.

Jismoniy shaxslardan daromad solig'i, axolining mol-mulk solig'i, transport solig'i, yer solig'i, reklama solig'i, maishiy va xisoblash texnikalarini qayta sotish solig'i va boshqalar olinadi.

Byudjetga o'tkazish nuqtai nazardan soliqlar umumdavlat soliqlari va maxalliy soliqlarga bo'linadi.

Soliq qonunchiligida soliqlarning qaysi turlari to'g'ri davlat byudjetiga, qaysilari esa maxalliy byudjetga tushishi aniq ko'rsatib qo'yilgan. Ammo shu aniqki davlat byudjetiga tushgan mablag'larning bir qismi maxalliy byudjetlarga ajratib beriladi.

Soliq turlariga qarab bevosita va bilvosita soliqlarga bo'linadi. Bunday guruxlanish Soliqqa tortish oboektiga, to'lovchi bilan davlatning o'zaro munosabatlariga bog'liq buladi. Bevosita soliqlar to'g'ridan-to'g'ri daromadga va mol-mulkka belgilanadi. Tovarning baxosida to'lanadigan yoki taxrifga kiritiladigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlar bilvosita soliqlarga kiradi.

Bevosita soliqlar real va shaxsiy soliqlarga bo'linadi. Real soliqlar soliq to'lovchining mol-mulkining ayrim turlaridan kadastr asosida undiriladi.

Xar qanday tadbir, ish va faoliyat ilgaridan belgilanib, aniqlanib ishlab chiqilgan siyosat bilan amalga oshiriladi. Siyosat deganda davlatning ilgaridan belgilab, aniqlab



qo‘ygan chora-tadbirlari yig‘indisi tushuniladi. Soliq ishlarini tashkil qilishda xam shu siyosat bilan ish yuritiladi. Soliq siyosati davlatning moliya siyosatini eng muxim, tarkibiy ajralmas qismidir.

Xar qanday iqtisodiy kategoriyaning bajaradigan funksiyasi bo‘ladi. Funksiya - bu soliq kategoriyasining amaliyotdagi xarakatidir va soliqlarning moxiyatini ochib beradi. Funksiya deganda kategoriyaning xaetda ko‘p tarkaladigan va takrorlanadigan doimiy xarakatlarini tushunamiz. Bizni fikrimizga kura soliq quyidagi funksiyalarni bajaradi: - xazina (fiskal) funksiyasi:

" Fiskal funksiyasi

" Rag‘batlantirish funksiyasi

" Nazorat funksiyalari mavjuddir. Ayrim iqtisodchilar fikrlari bo‘yicha taqsimlash va iqtisodiyotni tartibga solishlarni xam ko‘shadilar. Lyokin bizni fikrimizga kura soliqlar asosan 3 - ta funksiyani bajaradi, taqsimlash va iqtisodiyotni tartibga solish asosan uchta funksiyani ichiga kirib ketadi. Xazina (fiskal) funksiyasi. Fiskal (lotincha Fiscus so‘zidan olingan bo‘lib, gazna degan mahnoni anglatadi) xusuiyatiga ega ekanligidir.

Fiskal funksiya davlatning iqtisodiyotga aralashuvi uchun obyektiv shart-sharoit vujudga keltiradi. Byudjet daromadlarini ta‘minlash soliq tizimi vazifalaridan bittasi xolos. Soliq tizimi ana shu vazifani xal etar ekan, jamgarma va ishlab chiqarishning usish jarayonlariga tuskinlik kilmasligi, ijtimoiy adolatni bo‘zmasligi, xalq xo‘jaligi to‘zilishida buzilishlar va chetga chikishlar sodir bo‘lishiga yo‘l kuymasligi, bozor jarayoniga putur etkazmasligi zarur.

Soliqlarning nazorat funksiyasiga kelsak, bu funksiya orqali soliqlar ijtimioy maxsulot qiymatini qanchaga tushganligi, milliy daromadning salmogini nazorat qilib bilib olgandan so‘ng undan qancha qismini soliqlar orqali byudjetga tuplash zarurligi, ularning obyektlarini, soliq to‘lovchilarini, soliq stavkalarini to‘g‘ri belgalish hamda soliqlarni o‘z vaqtida to‘g‘ri xisoblab byudjetga o‘tkazish jarayonini nazorat qilib boradi. Bu nazorat doimo taqsimlash funksiyasi bilan yonma-yon olib boriladi. Soliqlarning nazorat funksiyasi ba‘zan taqsimlash funksiyasidan xam kengayib ketadi. Chunki taqsimlashda faqat pul munosabatlari bilan chegaralanib qolinsa, soliqlarning nazorat funksiyasi pul munosabatlari orqali taqsimlashdan tashqari soliq obyektlarini buyum shaklida xam to‘liqligi, maxsulotlar koldiklari xom ashe va yoqilgilardan boshqa manbalardan foydalanish ustidan xam nazoratga aylanadi. Demak, soliqlarning nazorat funksiyasi soliq idoralarini xodimlarining kundalik olib boradigan umumiqtisodiy nazoratining nazariy asosini tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq idoralarining nazorati asosan yagona iqtisodiy qonunlar talabiga javob beradigan nazoratga aylanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining [Farmon va Qarorlari](#), Vazirlar [Mahkamasining Qarorlari](#)
2. Алиев Б.Х. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “Финансы и статистика”, 2018
3. Alimardonov M., Kuziyeva N. “Soliqlar va soliqqa tortish” o‘quv-uslubiy qo‘llanma Toshkent “Iqtisod-Moliya” 2007-yil 8-bet
4. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya Darslik. –T.: “Noshir”, 2011
5. Jo‘raev T. Soliqsiyosatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini vatamoyillari. //Soliqlar va boj xona xabarlari. – 2018 .– № 48.
6. Jo‘raev A.S., Toshmatov Sh.A., Abduraxmanov O.Q. Soliqlar va soliqqa tortish: O‘quv qo‘llanma. –T.: NORMA, 2016